

AHOLI TOMORQALARINI RIVOJLANTIRISHGA BAG'ISHLANGAN SEMINAR BO'LIB O'TDI



Qo'shtepa tumani Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi bilan hamkorlikda tomorqalardan samarali foydalanish yuzasidan amaliy seminar tashkil etildi.

Mazkur seminarda ayni kunlarda to'qsonbosti ekinlarini ekish, aholi tomorqalarida ishlarni jadallashtirish, urug', ko'chat yetkazib berish, samarali ish tajribalarini ommalashtirish masalalari muhokama qilindi.

Seminar so'ngida muhokama qilingan masalalar ijrosini ta'minlashda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, tomorqachilikni rivojlantirish borasida yordam so'rab qilingan har bir murojaatni e'tibordan qoldirmaslik borasida aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#)

2021-08-26 09:55:02